O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
YANGIQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

Yangiqo’rg’on shaharchasi Mustaqillik ko’chasi, 1 uy. 161200 Tel: (69)63-21-051

2022 - yil 14 - dekabr 688-6-90-Q/22 Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

Yangiqo‘rg‘on tumanida uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 20 yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan “ O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi nizomning 12-bandiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Davlat kadastrlari palatasi Namangan viloyat boshqarmasi Yangiqo‘rg‘on tuman filialining 2022 yil 25 noyabrdagi 109-sonli taklif xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangiqo‘rg‘on tumanida uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Namangan viloyat boshqarmasining Yangiqo‘rg‘on tuman filiali ushbu qarorda belgilangan tartibga rioya etilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

4. Ushbu qaror “Yorqin hayot” gazetasining navbatdagi sonida rasman e’lon qilinsin hamda bir ish kuni ichida hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

6. Mazkur qarordan norozi shaxslar yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

7.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Sotiboldiev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Najmiddinov**

Yangiqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 14 dekabrdagi
688-6-90-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Yangiqo‘rg‘on tumanida uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish

TARTIBI

1. Ushbu tartib Yangiqo‘rg‘on tumanida jismoniy va yuridik shaxslarga (mulk egalari yoxud mulk egasining ishonchnomasi asosida harakat qiluvchi shaxslarga), shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan (keyingi o‘rinlarda “Inventar yig‘ma jild”) ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibini belgilaydi.

2. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildi uy yoki turar joy foydalanish uchun qabul qilib olinayotganda yoxud turar joy uy-joy fondiga kiritilayotganda tuziladi.

3. Inventar yig‘ma jilddan ko‘chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

4. Inventar yig‘ma jildning nusxalari va boshqa inventarizasiya hujjatlari Davlat kadastrlari palatasi Namangan viloyat boshqarmasining Yangiqo‘rg‘on tuman filiali arxivida, shuningdek, davlat arxivlarida saqlanadi.

5. Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar filialning ish kunlaridagi ish vaqti davomida beriladi.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarga inventar yig‘ma jilddan nusxalar murojaat (so‘rov) kelib tushgan kundan boshlab 2 ish kuni davomida beriladi.

7. Inventar yig‘ma jilddan nusxalar filial muhri bilan tasdiqlangan holda beriladi.

8. Mulkdorning yoki uning ishonchnomasi asosida harakat qiluvchi shaxsning, shuningdek, mulkdor merosxo‘rining so‘roviga ko‘ra Inventar yig‘ma jildning nusxasi elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

9. Inventar yig‘ma jilddan ko‘chirmalar va nusxalar davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga bepul beriladi.

10. Huquqni muhofaza qilish organlarining murojaatiga asosan inventar yig‘ma jild vaqtincha foydalanish uchun 3 oy muddatgacha taqdim etilishi mumkin.

11. Inventar yig‘ma jilddan nusxalar bepul beriladi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

12. Ko‘chmas mulk ob’yektlariga bo‘lgan huquqlarning Davlat reyestridan elektron ko‘chirma berish Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 10 iyuldagi 186-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk ob’yektlarining davlat kadastri sohasida davlat xizmatlari narxlarini belgilash tartibi” hamda Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 29 dekabrdagi 1060-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk ob’yektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat

ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

13. Qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda inventar yig‘ma jilddan nusxalar berish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshiriladi.